DAVLAT GRANTLARI TANLOVLARINI SHAKLLANTIRISHDA KO'P BOSQICHLI IJTIMOIV MASLAHATLASHUV VA RAQAMLI JAMOATCHILIK ISHTIROKI MEXANIZMINING AHAMIYATI.....	1020
<b>Xasanov Jahongir Botir o'g'li</b>	
PAXTA XOM ASHYOSINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ORQALI QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISH.....	1025
<b>Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li, Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI .....	1030
<b>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ И АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ «ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ» .....	1036
<b>Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи</b>	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	1040
<b>Гаффоров Шухрат Насриевич</b>	
BANKLARDA ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	1047
<b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1054
<b>Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich</b>	



JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ KORXONALARINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI.....	1059
<b>Masharipova Manzura Alimbayevna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI....	1067
<b>Dusmatov Begmuxammad Olimjonovich, Mirzaahmedov Mirziyo Ulug'bek o'g'li</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI BIZNES SUBYEKTLARI BIZNES MUHITI RIVOJLANISHIGA DAVLATNING TA'SIRI..	1072
<b>Hazratov Abror Panjiyevich, Muratkulov Xumoyun Dilshodovich</b>	
YASHIL XIZMATLAR SOHASINING MOHIYATI, IJTIMOY-IQTISODIY FUNKSIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	1077
<b>Y.M. Xalikov</b>	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI.....	1085
<b>Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich</b>	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1091
<b>Мухторов М. Н., Каримова А. М.</b>	
«HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА.....	1098
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN REAL VAQT REJIMIDA DINAMIK RISK-PROFILGA ASOSLANGAN KREDIT LAYOQATINI BAHOLASHNING ADAPTIV MODELI (DRP-KREDIT MODELI)...	1109
<b>Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UN DAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
<b>Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li</b>	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
<b>Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich</b>	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1124
<b>Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
<b>Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
<b>Эгамова Махфурат Эсановна</b>	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
<b>Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис</b>	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULYAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	1156
<b>Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna</b>	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
<b>Kodirova Samira Kamol qizi</b>	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI  
IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-  
XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY  
JIHATLARI ..... 1169

**Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li**

RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIKLARNING  
INSTITUTSIONAL ASOSLARI ..... 1175

**Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich**



# RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIY USTUNLIKLARNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

**Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich**

Termiz davlat universiteti  
iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich magistri.  
E-mail: sattorovv18@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqtisodiyot fanida raqobatbardoshlik tushunchasi va hududiy ustunlik nazariyalarining evolyutsiyasi tadqiq etilgan. An'anaviy xomashyoga tayangan qarashlardan farqli o'laroq, zamonaviy mintaqalar taraqqiyoti yuqori texnologiyalar, sanoatni klasterlashtirish, aglomeratsiya effekti hamda qulay institutsional muhitga bog'liqligi ilmiy asoslangan. Nazariy xulosalar Surxondaryo viloyati misolida ko'rib chiqilib, hududning agrar iqtisodiyotdan strategik tranzit-logistika imkoniyatlari orqali yirik xalqaro sanoat markaziga aylanish mexanizmlari tizimlashtirilgan hamda transaksion xarajatlarni kamaytirish omillari baholangan.

**Kalit so'zlar:** raqobatbardoshlik, mintaqaviy iqtisodiyot, institutsional muhit, transaksion xarajatlar, hududiy ustunlik, sanoat klasteri, tranzit salohiyati, aglomeratsiya effekti.

**Annotation.** This article examines the evolution of the competitiveness concept in economic science and the theories of regional advantages. In contrast to traditional raw material-oriented views, it is scientifically proven that the development of modern regions depends on advanced technologies, industrial clustering, the agglomeration effect, and a favorable institutional environment. Theoretical conclusions are examined through the case of the Surkhondaryo region, with attention to the development of its industrial potential based on agrarian resources and transit-logistics opportunities, as well as factors contributing to the reduction of transaction costs.

**Keywords:** competitiveness, regional economy, institutional environment, transaction costs, regional advantage, industrial cluster, transit potential, agglomeration effect.

**Аннотация.** В данной статье исследуются эволюция концепции конкурентоспособности в экономической науке и теории региональных преимуществ. В отличие от традиционных подходов, ориентированных на сырьевые ресурсы, научно обосновано, что развитие современных регионов зависит от высоких технологий, кластеризации промышленности, эффекта агломерации и благоприятной институциональной среды. Теоретические выводы рассмотрены на примере Сурхандарьинской области. В статье систематизированы подходы к развитию промышленного потенциала региона на основе его аграрных ресурсов и транзитно-логистических возможностей, а также проанализированы факторы, способствующие снижению транзакционных издержек.

**Ключевые слова:** конкурентоспособность, региональная экономика, институциональная среда, транзакционные издержки, региональное преимущество, промышленный кластер, транзитный потенциал, эффект агломерации.

## KIRISH

Iqtisodiyot fanida raqobatbardoshlik tushunchasi o'zining g'oyat serqirra, chuqur, ko'p faktorli va uzluksiz o'zgarib turuvchi dinamik tabiati bilan ajralib turadi. Iqtisodiy tafakkur tarixiga va global sivilizatsiyalar taraqqiyotiga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, davlatlar, yirik mintaqalar yoki alohida submilliy hududlarning iqtisodiy ustunligini ta'minlovchi omillar davrlar osha doimiy ravishda fundamental va evolyutsion o'zgarishlarga yuz tutganini aniq kuzatishimiz mumkin. Dastlabki tarixiy bosqichlarda hududiy iqtisodiy ustunlik va farovonlik asosan tabiat tomonidan in'om etilgan arzon resurslarga, geosiyosiy joylashuvga, qulay iqlim sharoitlariga va tayyor xomashyo bazalariga bog'lab tushuntirilgan. Iqtisodiyot fani tamal toshini qo'ygan mumtoz nazariyalardagi mutlaq va qiyosiy ustunlik tamoyillari aynan mana shu obyektiv, moddiy resurslarga tayangan mantiq asosida shakllantirilgan.

Ushbu funksional yondashuvlarga ko'ra, qaysi hududda arzon ishchi kuchi, dehqonchilik yoki chorvachilik uchun unumdor yerlar, suv havzalari yoki mo'l mineral-xomashyo va qazilma boyliklar tabiiy ravishda ko'proq mavjud bo'lsa, o'sha mintaqalar xalqaro va ichki mehnat taqsimotida, shuningdek, tovar ayirboshlash jarayonlarida



soʻzsiz ustunlikka ega deb hisoblangan. Ushbu paradigma uzoq yillar davomida mintaqalar iqtisodiyotini tushuntirib beruvchi yagona mezon boʻlib xizmat qildi va koʻplab hududlar oʻz iqtisodiy siyosatini aynan tabiat inʼomlariga tayangan holda ekstensiv yoʻnalishda qurishdi.

Biroq, global bozorlarda oʻzaro raqobat shiddati keskin ortib ketgan, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarga innovatsiyalar misli koʻrilmagan tezlikda jadal kirib kelayotgan hozirgi XXI asr raqamli iqtisodiyot sharoitida bu kabi anʼanaviy, faqatgina statik moddiy resurslarga suyanadigan qarashlar sanoat korxonalarini raqobatbardoshligining asl iqtisodiy mexanizmini toʻliq ochib bera olmaydi. Bugungi kunda xomashyoning yer ostida yoki yer ustida mavjudligi mintaqa uchun mutlaq va barqaror ustunlik degani emas. Balki ana shu cheklangan va tugaydigan resurslardan intellektual salohiyat hamda yuqori texnologiyalar yordamida chuqur qayta ishlangan, qoʻshilgan qiymati yuqori boʻlgan yakuniy tayyor mahsulotlar yaratish qobiliyati va ularni jahon bozoriga yetkazib berish tizimi hal qiluvchi mezonga aylangan. Tabiiy resurslarga haddan tashqari qaramlik iqtisodiyotda Golland kasalligi simptomlarini keltirib chiqaradi, inflyatsiya xavfini oshiradi, jahon xomashyo bozorlaridagi narxlar oʻzgaruvchanligiga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlanib qolishga olib keladi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — raqobatbardoshlik nazariyalarining evolyutsion taraqqiyot bosqichlarini tizimli tahlil qilish, makro va mikroiqtisodiy darajada hududiy ustunliklarni yuzaga chiqaruvchi institutsional omillarni aniqlash, Surxondaryo viloyati real sektori misolida iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, xomashyo yoʻnalishidan sanoat-logistika yoʻnalishiga oʻtish hamda hududiy raqobatbardoshlikni oshirish boʻyicha uzoq muddatli kompleks innovatsion-institutsional mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mintaqaviy iqtisodiy ustunlik va hududiy raqobatbardoshlik konsepsiyasi iqtisodiy maktablar doirasida uzoq vaqt davomida konseptual jihatdan tadqiq etib kelingan. Iqtisodiyot fani tamal toshini qoʻygan mumtoz nazariyalarda, xususan, Adam Smith oʻzining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari toʻgʻrisida tadqiqotlar” (1776) asarida mutlaq ustunlik nazariyasini ilgari surgan boʻlsa, David Ricardo (1817) uni yanada rivojlantirib, mamlakatlar va hududlar oʻrtasidagi mehnat taqsimotini qiyosiy ustunliklar tamoyili asosida shakllantirdi. Ushbu yondashuvlarga koʻra, hududiy ixtisoslashuv tabiiy omillarga (iqlim, yer unumdorligi, mineral zaxiralar) asoslanishi kerak edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Eli Heckscher va Bertil Ohlin tomonidan shakllantirilgan ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi (Heckscher-Ohlin modeli) hududiy raqobatbardoshlikni kapital va mehnat resurslari bilan taʼminlanganlik darajasi orqali tushuntirdi. Yaʼni, qaysi hududda qaysi ishlab chiqarish omili koʻp va arzon boʻlsa, oʻsha hudud oʻsha omilni koʻp talab qiladigan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi iqtisodiy jihatdan samarali deb hisoblandi.

Biroq, XX asrning ikkinchi yarmi, xususan, 1990-yillarga kelib iqtisodiyot fanida raqobatbardoshlikni ilmiy anglashda oʻziga xos keskin konseptual burilish yuz berdi. Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter oʻzining “Milliy raqobatbardoshlik” (1990) nazariyasida (“Porter rombi” yoki Porter Diamond model) hududiy ustunlik oʻz-oʻzidan shakllanadigan yoki faqat tabiiy resurslar bilan belgilanadigan statik neʼmat emas, balki hududning ichki iqtisodiy salohiyatini strategik boshqarish, taʼlim, fan, biznes va innovatsiyalarni uygʻunlashtirish orqali shakllanadigan dinamik hodisa sifatida talqin etiladi. Porter rombining toʻrtta asosiy determinanti:

Ishlab chiqarish omillari (oddiy omillardan yuqori texnologiyali va malakali kadrlar kabi yaratilgan omillarga oʻtish);

Ichki va tashqi bozor talabi sharoitlari (isteʼmolchilarning didi va sifatga boʻlgan yuqori talabi);

Turdosh va qoʻllab-quvvatlovchi tarmoqlarning mavjudligi (klasterlar);

Firmaning strategiyasi, tuzilishi va raqobat muhiti.

Zamonaviy iqtisodiy geografiya yoʻnalishi vakili, Nobel mukofoti laureati Paul Krugman (1991) oʻzining Yangi iqtisodiy geografiya (New Economic Geography) nazariyasida ishlab chiqarish quvvatlarining maʼlum bir geografik makonda toʻplanishi — “aglomeratsiya effekti” (agglomeration economies) hamda transport-logistika xarajatlarining optimallasuvi hududning raqobatbardoshligini belgilab beruvchi eng muhim tayanch va endogen omillardan biri hisoblanishini koʻrsatdi. Sanoat korxonalarining bir hududda zich joylashishi ular oʻrtasida tajriba almashishni (knowledge spillovers), transaksion xarajatlarni kamaytirishni va umumiy infratuzilmadan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Institutsional iqtisodiyot maktabi namoyandalari Ronald Coase (1937) va Douglass North (1990) yondashuvlari mintaqaviy sanoat siyosatida yangi ufqlarni ochdi. Ular hududda qanchalik mukammal geografik joylashuv yoki ulkan xomashyo bazasi mavjud boʻlmasin, uni real iqtisodiy oʻsishga aylantiruvchi asosiy kuch — bu hududdagi institutsional muhit ekanligini isbotlashdi. North taʼrifiga koʻra, institutlar — bu jamiyatdagi oʻziga xos qoidalar boʻlib, ular insonlarning va iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlarini shakllantiruvchi qoidalar,



me'yorlar hamda ijro mexanizmlari yig'indisidir. Coase tomonidan kiritilgan "transaksion xarajatlar" tushunchasi esa — axborot qidirish, shartnomalar tuzish, davlat idoralaridagi byurokratiya va qog'ozbozlik tufayli yo'qotilgan vaqt va resurslarni o'z ichiga olib, sog'lom institutsional muhit orqali ushbu xarajatlarni minimallashtirish korxonalarining global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklari va yirik ishlab chiqarish subyektlari real sektor, aholi va davlat moliyasi o'rtasidagi kapital harakatini ta'minlovchi, ishlab chiqarishni moliyalashtiruvchi markaziy bo'g'in hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiyot tizimida ushbu munosabatlarning shakli va mazmuni o'zgarib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tarkibiy va institutsional islohotlar, xususan, hududlarni muvozanatli rivojlantirish va markazlashgan sanoat yondashuvidan voz kechib, joylardagi "o'sish nuqtalari" asosida sanoat tumanlarini shakllantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va tarkibiy tahlil, mantiqiy model va korrelyatsion bog'liqlik metodlaridan foydalanildi. Raqobatga chidamli iqtisodiyot yaratish har bir hudud va tumanning ixtisoslashuv yo'nalishini obyektiv baholash, xomashyo hududida o'sha xomashyoni qayta ishlaydigan texnologiyalarni joylashtirish kabi mantiqiy zanjirga bog'liqdir.

Ushbu nazariy-metodologik xulosalarni Surxondaryo viloyati misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, iqtisodiyotni klasterlashtirish va maqsadli ixtisoslashtirish hududning mavjud agrar salohiyatini yuqori qo'shilgan qiymatga ega sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, paxta, pilla hamda meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali viloyatda tayyor mahsulot ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish va sanoat-logistika yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Mintaqaning iqlim sharoiti va mehnat resurslari xomashyo yetishtirish uchun qanchalik qulay bo'lmasin, ularni tayyor yuqori texnologiyali mahsulotga aylantirmasdan turib, aholining daromadlarini barqaror oshirish, yangi ish o'rinlarini ko'paytirish hamda viloyatning iqtisodiy qudratini yuksaltirish murakkablashadi. Sanoatlashish darajasi nisbatan past bo'lgan, asosan agrar va an'anaviy kichik savdo-sotiqqa asoslangan hududlarni zamonaviy texnologiyalarga ega, xalqaro maydonda kuchli va o'z o'rniga ega raqobatdosh mintaqaga aylantirish hududiy boshqaruv va mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga ulkan strategik mas'uliyat yuklaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatining transport-logistika imkoniyatlari va hududiy salohiyati

Iqtisodiyot qonuniyatlariga ko'ra, ishlab chiqarish quvvatlarining ma'lum bir geografik makonda to'planishi (aglomeratsiya effekti) hamda xalqaro bozorlarga chiqishdagi transport-logistika xarajatlarining optimallasuvi hududning raqobatbardoshligini belgilab beradi.

Surxondaryo viloyati mintaqaviy tranzit imkoniyatlari jihatidan muhim salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatning quruqlik chegaralari, temir yo'l va avtomobil yo'llari tizimi qo'shni davlatlar, xususan, Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo mamlakatlari bozorlariga chiqish uchun qulay transport-logistika yo'nalishlarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa hududning tashqi savdo aloqalarini kengaytirish, logistika xarajatlarini maqbullashtirish va mintaqaviy iqtisodiy faolligni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yirik va o'rta sanoat korxonalarini, qo'shma korxonalarni hamda yirik ulgurji savdo bazalarini aynan asosiy xalqaro transport koridorlariga, logistika markazlari va savdo tugunlariga — masalan, Termiz erkin iqtisodiy zonasi yoki Termiz xalqaro savdo markazi kabi obyektlarga yaqin hududlarda konsentratsiya qilish o'ta muhim amaliy ahamiyatga ega. Natijada, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxidagi transport va saqlash ustamallari keskin kamayadi, uzoq masofaga tashishda yuzaga keladigan vaqt yo'qotishlari bartaraf qilinadi, shu orqali xorijiy va ichki bozorlarda raqobatchilarga nisbatan mutlaq narx ustunligiga erishish mumkin bo'ladi.

Mintaqaviy sanoat tarkibini takomillashtirish va diversifikatsiyalash yo'nalishlari

Qishloq xo'jaligiga yoxud oddiylashgan savdo-vositachilik xizmatlariga tayangan mintaqaviy iqtisodiyot jahon bozorida global moliyaviy inqirozlar, keskin iqlim o'zgarishlari, qurg'oqchilik xavflari va bozor konyunkturasidagi kutilmagan tebranishlarga o'ta ta'sirchan bo'ladi. Qolaversa, iqtisodiyotning tayanch qoidalariga asosan, qishloq xo'jaligida yaratiladigan qo'shilgan qiymat miqdori va mehnat unumdorligi sanoat korxonalarida yaratiladigan qo'shilgan qiymatga qaraganda bir necha barobar past bo'ladi.

Bu esa o'z navbatida aholi daromadlarining barqaror va jadal o'sishini, iste'mol qobiliyatini hamda eng asosiysi — yoshlar va malakali mutaxassislar uchun mo'ljallangan yirik, yuqori maoshli ish o'rinlari yaratilishini bevosita cheklab qo'yadi. Demak, mintaqaviy aholisining turmush farovonligini tizimli oshirish, mahalliy budjet tushumlarini barqarorlashtirish va mintaqaviy majmuasiga bevosita iqtisodiy foyda keltirish uchun viloyatda

bosqichma-bosqich sanoatlashish jarayonlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### 1-jadval. Surxondaryo viloyati tumanlari ixtisoslashuvi va sanoat zonalarini samaradorligini baholash mezonlari

Hudud Sanoat zonasi nomi	Mavjud xomashyo va resurs bazasi	Ustuvor sanoat yo'nalishi	Baholashning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
Termiz	Logistik tugun, import butlovchi qismlar	Mashinasozlik, yuqori texnologiyali kimyo, elektrotexnik sanoat	Jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, eksport hajmi
Boysun va Sho'rchi tumanlari	Ko'mir, polimerlar, neft-gaz zaxiralari, mineral xomashyo	Qurilish materiallari, og'ir sanoat, kimyoviy xomashyoni chuqur qayta ishlash	Mahsulot tarkibidagi qo'shilgan qiymat ulushi, import o'rnini bosish darajasi
Denov va Jarqo'rg'on tumanlari	Agrosanoat mahsulotlari (paxta, pilla, meva-sabzavot)	To'qimachilik-trikotaj klasterlari, oziq-ovqat sanoati, qadoqlash	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmi, yaratilgan yangi barqaror ish o'rinlari soni
Yoshlar sanoat zonalarini	Bo'sh mehnat resurslari, intellektual salohiyat	Kichik texnikaviy ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va kooperatsiya	Atrofdagi kichik korxonalar zanjirining shakllanishi

Mavjud polimer, ko'mir, neft-gaz xomashyosini hamda agrosanoat mahsulotlarini hududning o'zida chuqur qayta ishlovchi zamonaviy korxonalar tarmog'ini barpo etish istak emas, balki hudud taraqqiyotining fundamental hayotiy zaruratiga aylangan. Sanoat raqobatbardoshligini ta'minlash faqatgina iqtisodiy raqamlarni va foizlarni rasmiy ko'rsatkichlarni yaxshilash degani emas; u avvalo yosh kadrlar uchun kafolatlangan barqaror ish o'rinlari yaratish, hududdan intellektual va jismoniy mehnat resurslarining tashqi va ichki migratsiyasini to'xtatish, investitsion iqlimni yuksaltirish hamda yakuniy hisobda jamiyat farovonligini ta'minlash demakdir.

Institutsional muhit va transaktsion xarajatlar bog'liqligi.

Mintaqada qanchalik mukammal geografik joylashuv yoki ulkan zaxiralarga ega xomashyo bazasi mavjud bo'lmasin, ushbu potensialni haqiqiy amaliy iqtisodiy o'sishga aylantiruvchi eng asosiy ko'rinmas kuch — bu hududdagi institutsional muhit hisoblanadi. Zamonaviy mintaqaviy sanoat siyosatida qulay va sog'lom institutsional muhit deganda, eng avvalo, xususiy mulk daxlsizligining qonun va amalda qat'iy kafolatlanishi, xorijiy va mahalliy investorlar uchun yaratilgan kafolatlangan huquqiy xavfsizlik, shartnomaviy munosabatlarning himoya qilinishi, mahalliy hokimiyat organlari hamda nazorat idoralarining biznesni qo'llab-quvvatlashdagi shaffof faoliyati tushuniladi.

Agar hududda eskirgan ma'muriy-byurokratik to'siqlar saqlanib qolsa, iqtisodiy xarakterdagi shartnomalar ijrosi tegishli idoralar tomonidan to'liq ta'minlanmasa yoki ishlab chiqarishni boshlash uchun turli xil asossiz ruxsat berish tartib-taomillari, litsenziya va sertifikatlar olish oylab cho'ziladigan bo'lsa, bu mintaqada sanoat korxonalarining "transaksiyon xarajatlari" asossiz ravishda oshib ketadi.

Transaksiyon xarajatlarning noqulay institutsional muhit tufayli sun'iy ravishda o'sib ketishi bevosita va muqarrar ravishda ishlab chiqarilgan har qanday mahsulotning yakuniy tannarxiga yuklama bo'lib qo'shiladi. Xarajatlar tufayli ishlab chiqaruvchi o'z foydasini saqlab qolish uchun yakuniy iste'molchi uchun mahsulot narxini oshirishga majbur bo'ladi.

Bunday nosog'lom muhitda faoliyat yuritishga majbur bo'ladigan mahalliy sanoat xalqaro maydondagi va hatto ichki bozordagi raqobatdan ham chetda qolib, muqarrar ravishda mag'lubiyatga uchraydi. Sababi, bugungi globallashtirilgan ochiq bozorda axborot juda tez tarqaladi va iste'molchilar yoki ulgurji xaridorlar har doim sifati eng yuqori bo'lgan, ammo ortiqcha "sun'iy" xarajatlardan xoli, narxi arzonroq bo'lgan muqobil boshqa hudud mahsulotini tanlaydilar.

Shu sababli viloyat darajasida shaffof, barqaror va qulay iqtisodiy-huquqiy muhitni shakllantirish hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlat boshqaruvi va mahalliy hokimiyat organlari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini faqat nazorat qilish bilan cheklanib qolmasdan, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, investitsion faollikni rag'batlantirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashuvchi hamkor institut sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiqdir. Institutsional muhitning izchil takomillashtirilishi investitsiyalarning samaradorligini oshirish va hududning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishning kompleks innovatsion-institutsional mexanizmlari

Ma'muriy-regulyatorlik muhitini maqbullashtirish mexanizmi

Ushbu mexanizm biznes loyihalarni ro'yxatdan o'tkazish va ruxsatnomalar olish zanjirini raqamlashtirishni ko'zda tutadi. Mahalliy darajadagi barcha litsenziyalash va eksport-import operatsiyalarini "Yagona darcha" tizimi orqali to'liq shaffoflashtirish, nazorat qiluvchi organlarning tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvini



cheklash orqali ko'rsatkichni minimal darajaga tushirish zarur.

Transport-logistika infratuzilmasini diversifikatsiyalash mexanizmi

Termiz shahrining xalqaro logistika markazi sifatidagi salohiyatidan foydalanib, transchegaraviy savdo va bojxona terminallari o'tkazuvchanlik quvvatini oshirish. Sanoat korxonalarini bevosita transport magistrallari atrofida joylashtirish hisobiga transport xarajatlarining mahsulot tannarxidagi ulushini hozirgi holatidan pasaytirish mexanizmi.

Gravitatsion klasterlashtirish va kooperatsiya mexanizmi

Yirik korxonalar atrofida yordamchi kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini birlashtirish. Maxsus sanoat zonalarining haqiqiy iqtisodiy samarasini faqatgina ro'yxatdan o'tgan yuridik korxonalar soni yoki ajratilgan yer gektarlari bilan emas, balki ular ishlab chiqarayotgan import o'rnini bosuvchi innovatsion mahsulotlar hajmi, yaratilayotgan yuqori texnologiyali ish o'rinlari hamda eng asosiysi — bu iqtisodiy markazlar atrofida zanjir reaksiyasi usulida tabiiy ravishda shakllanayotgan va o'sib borayotgan yordamchi mustaqil kichik korxonalar tarmog'ining (tozalash xizmatlari, transport-logistika, uskunalar ta'mirlash, qadoqlash sexlari, ishchilarni ovqatlanirish xizmatlari) rivojlanish darajasi bilan o'lchash tizimini joriy etish. Bunday yondashuv erkin sanoat zonalarining butun viloyat taraqqiyotiga kuchli impuls beruvchi gravitatsiya markaziga aylanishini ta'minlaydi.

Inson kapitali va mintaqaviy innovatsion ekotizim mexanizmi

Mintaqadagi oliy ta'lim muassasalari (masalan, Termiz davlat universiteti va boshqalar) hamda ilmiy-tadqiqot markazlarini sanoat korxonalarini bilan to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilish. Sanoat tumanlarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, muhandislar, IT-mutaxassislar va texnolog kadrlar tayyorlashni buyurtma asosida yo'lga qo'yish. Bu mexanizm hududdagi yosh intellektual resurslarning tashqi migratsiyasini kamaytiradi va aqliy markaz yaratilishiga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy, metodologik va empirik tadqiqotlar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

– Nazariy evolyutsiya xulosasi: Raqobatbardoshlik tushunchasi klassik xomashyo va resurs ustunligidan dinamik institutsional va innovatsion ustunlikka to'liq o'tdi. Zamonaviy sharoitda faqat xomashyoga tayanib qolish mintaqani uzoq muddatli turg'unlikka olib keladi. Hududiy ustunlik — bu barcha iqtisodiy va noiqtisodiy omillarning birgalikdagi mukammal uyg'unligidir.

– Surxondaryo viloyati bo'yicha amaliy xulosa: Viloyat iqtisodiyotini jadal sanoatlashtirish faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash emas, balki aholi daromadlarini oshirish va demografik o'sish sharoitida barqaror ish o'rinlari yaratishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mintaqaning Janubiy Osiyo darvozasi sifatidagi tranzit va aglomeratsiya imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, Termiz salohiyatini oshirish zarur.

– Institutsional muhit bo'yicha xulosa: Hududda ma'muriy jarayonlarning murakkabligi transaksion xarajatlarning oshishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holat mahalliy mahsulotlar tannarxining ortishi va ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlik imkoniyatlari cheklanishiga olib keladi. Shu bois mulk huquqini himoya qilish, shartnomalar ijrosini ta'minlash hamda biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- “Transaksion xarajatlarni monitoring qilish markazi”ni tashkil etish: Mahalliy hokimiyat huzurida tadbirkorlik subyektlarining vaqt va moliyaviy xarajatlarini muntazam baholab boruvchi, ma'muriy jarayonlardagi samarasizliklarni aniqlash hamda ularni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiluvchi monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

- Sanoat zonalarini baholash mezonlarini o'zgartirish: Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini baholashda faqat korxonalar soni emas, balki ular atrofida shakllangan kooperatsiya zanjiri, import o'rnini bosish hajmi va soliq tushumlari dinamikasini asosiy mezon qilib belgilash.

- Tranzit-logistika klasterini barpo etish: Termiz shahrida xalqaro transport kompaniyalari, bojxona, sertifikatlashtirish idoralari va yirik ishlab chiqaruvchilarni yagona raqamli platformaga birlashtiruvchi kompleks “Aqlli logistika” (Smart Logistics) tizimini yaratish.

- Mintaqaviy innovatsion jamg'armani shakllantirish: Sanoat korxonalarini va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan hududiy o'sish nuqtalaridagi innovatsion loyihalarni, olimlar va yosh tadqiqotchilarning amaliy ishlanmalarini tovarlashtirishni (commercialization) moliyalashtirish.

Surxondaryo viloyatining iqtisodiyoti va sanoat korxonalarini misolida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini matematik jihatdan baholash, hududda uzoq yillardan beri foydalanilmay kelayotgan yashirin iqtisodiy zaxiralarni aniqlash, shuningdek, ilmiy jihatdan asoslangan amaliy iqtisodiy yechimlar va prognozlarni ishlab chiqish kelgusi tadqiqotlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray.
3. Heckscher, E. F., & Ohlin, B. (1991). *Heckscher-Ohlin Trade Theory*. Cambridge, MA: MIT Press.
4. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
5. Krugman, P. (1991). *Geography and Trade*. Cambridge, MA: MIT Press.
6. North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Coase, R. H. (1937). The Nature of the Firm. *Economica*, 4(16), 386–405.
8. Financial Stability Board. (2017). *FinTech and market structure in financial services: Market developments and potential financial stability implications*. Basel: FSB.
9. Deloitte. (2020). *Digital Banking Maturity Report*. Deloitte Insights.
10. McKinsey & Company. (2021). *Global Banking Annual Review*.
11. World Bank. (2021). *Financial Inclusion and FinTech: A Global Perspective*. Washington, DC: World Bank.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)